DAVLAT TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDITNING MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI TASHKIL ETISHDAGI ROLI

Eldor Islomov
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada davlat tashkilotlarida ichki auditning moliyaviy nazorat tizimini tashkil etishdagi rolini tadqiq qilishda turli iqtisodchi olimlarning mazkur soha bo‘yicha qarashlari aks ettirilgan. Shuningdek, davlat tashkilotlarida ichki audit hamda moliyaviy nazorat tizimining ayrim jihatlari yoritilgan. Tahlillar natijasida ilmiy xulosalar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *audit, ichki audit, moliyaviy nazorat, risk, budjet, budjet xarajatlari, budjet tizimi.*

Abstract. *This article reflects the views of various economists in this area in studying the role of internal audit in the organization of the financial control system in state organizations. Also, some aspects of the internal audit and financial control system in state organizations are covered. As a result of the analysis, scientific conclusions are formed.*

Keywords: *audit, internal audit, financial control, risk, budget, budget expenditures, budget system.*

Kirish

Ichki audit moliyaviy nazorat tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanib, u tashkilot faoliyatining qonunchilik talablariga, ichki me’yoriy hujjatlarga hamda belgilangan moliyaviy siyosatga muvofiqligini baholash orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Moliyaviy resurslardan foydalanish jarayonlarini muntazam ravishda tekshirib borish natijasida ichki audit mablag‘larning maqsadli sarflanishini ta’minlaydi va moliyaviy intizomning mustahkamlanishiga ko‘maklashadi. Tashkilotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy xatolar, suiiste’molliklar va firibgarlik holatlarini erta aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lgani sababli, ichki audit moliyaviy xavflarni kamaytirishda muhim nazorat mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Ichki auditorlar tomonidan amalga oshiriladigan monitoring va tahlil ishlari moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirishi bilan bir qatorda, manfaatdor tomonlar uchun taqdim etilayotgan axborotning haqqoniyligini ham ta’minlaydi. Korxona yoki tashkilotda ichki nazorat tizimining samaradorligi muntazam ravishda baholab borilgani uchun, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va boshqaruv qarorlarini takomillashtirish imkoniyati kengayadi. Moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida ichki audit nazorat tartib-taomillarining amalda qanday ishlayotganligini tekshiradi hamda ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Tashkilot faoliyatida risklarga asoslangan yondashuvdan foydalanish zarurati ortib borayotganligi sababli, ichki audit risklarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimining muhim elementi sifatida faoliyat yuritadi. Budjet mablag‘lari yoki korporativ moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash orqali ichki audit iqtisodiylik, samaradorlik va natijadorlik tamoyillarining amalga oshirilishiga yordam beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining moliyaviy boshqaruv tizimlariga keng joriy etilishi ichki auditning vazifalarini yanada murakkablashtirayotgan bo‘lsa-da, bu holat auditorlik tahlillarining aniqligi va qamrovini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu sababli ichki auditning

moliyaviy nazorat tizimini tashkil etishdagi rolini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Tashkilotlarda moliyaviy nazorat tizimining tashkiliy jihatlari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilganligi ko‘rish mumkin. N.S.Malein bu borada: “Moliyaviy nazorat - tekshiruvda qonuniylik, asoslilik va pul xarajatlarining to‘g‘ri sodir etilganligini aniqlashdan iborat bo‘lgan hamda rejalarning bajarilish jarayonida moliyaviy, budjet, kredit, hisob-kitob va kassa intizomini ta’minlashga qaratilgan, moliyaviy, kredit va xo‘jalik organlari (tashkilotlari)ning huquqiy me’yorlar bilan tartibga solinadigan faoliyatidir” [1], deb ta’kidlaydi.

Shuningdek, A.N.Kozirin esa: “Moliyaviy nazorat – davlat organlarining maxsus tashkiliy shakl va usullar yordamida, ayrim hollarda nodavlat organlarining qonunda keltirilgan vakolatlari doirasida moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi va haqqoniyligini aniqlash, moliya-xo‘jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini ob’ektiv baholash, rezervlarni aniqlash va oshirish, budjet daromad tushumlarini ko‘paytirish va davlat mulkini saqlash maqsadida amalga oshiriladigan faoliyatidir” [2], deya e’tirof etadi.

T.V.Konyuxova, bunda: “Moliyaviy nazorat – mamlakat va uning alohida hududlarini samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida davlat va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish sub’ektlari pul fondlarini shakllanish, taqsimlash va foydalanish sohasidagi harakatning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi ustidan nazorat” [3], deb izohlaydi.

Yana bir olim Ye.Yu.Gracheva: “Moliyaviy nazorat – moliyaviy tizimlarning barcha bo‘g‘inlarida resurslarning shakllanish, taqsimlash va foydalanish ustidan davlat nazoratining ko‘rinishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. U davlat mablag‘larining xarajat qilinishini, davlat resurslari harakatining o‘z vaqtidaligi va to‘liqligi, barcha moliyaviy tizimlar bo‘g‘inlaridagi daromad va xarajatlarning qonuniyligi, hisob va hisobot qoidalariga amal qilinishini tekshirishga qaratilgan” [4], deb ta’rif beradi.

Ichki audit tizimi davlat budjeti mablag‘larini samarali boshqarish vositasi bo‘lib, tashkilotning umumiy faoliyati, moliyaviy barqarorligi va qonunlarga rioya etishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, audit jarayonlari orqali tashkilotdagi operatsion va moliyaviy xatolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish uchun amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Shu jihatdan ichki audit tizimi nafaqat nazorat vositasi, balki tashkilotning strategik rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim mexanizmdir [5].

Bugungi kunda respublikamizda mavjud davlat moliyaviy nazorati tizimi asosan tashqi moliyaviy nazoratdan iborat bo‘lib, vakolatli organlarning alohida bo‘linmalari, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi, Bosh prokuratura, o‘z vazifalari doirasida davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi [6].

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlari samaradorligini oshirish, budjet qonunchiligi buzilishining oldini olishni kuchaytirish va masofaviy moliyaviy nazoratni kengaytirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlari samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorda budjet mablag‘lari ijrosini nazorat qilish va uning shaffofligini ta’minlash, bu borada davlat moliyaviy nazorati tizimida keskin ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish belgilangan Respublikada budjet mablag‘lari ilg‘or xalqaro tajriba asosida takomillashtirilib, budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat tizimiga alohida e’tibor qaratish lozimligi takidkab o‘tilgan [7].

Budjet tashkilotlarida ichki audit – tashkilot tomonidan smetalarni tuzish hamda ijrosini amalga oshirishni qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish hamda monitoring olib borish yo‘li bilan nazorat qilish, moliyaviy hisobot ma’lumotlarining ishonchliligini ta’minlash, mablag‘larni maqsadli va oqilona sarflashga yo‘naltirilgan faoliyatdir [8].

Tadqiqot metodologiyasi

Ichki auditning moliyaviy nazorat tizimini tashkil etishdagi rolini tadqiq qilishda ilmiy mushohada, qiyosiy tahlil, induksiya, deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Budjet tashkilotlarida ichki auditni samarali joriy etish uchun bir nechta muhim usullar va yondashuvlar qo‘llaniladi. Bu usullar ichki audit tizimining amaliyotini takomillashtirish va tashkilotning moliyaviy samaradorligini oshirishga yordam beradi. Quyida ichki auditni joriy etishning asosiy usullari yoritiladi (1-rasm):

1. Riskga asoslangan audit - Bu usulda ichki audit tashkilotdagi yuqori xavfli sohalarga e’tibor qaratadi. Audit rejalari xavflarni baholash asosida tuziladi va tashkilotning moliyaviy barqarorligiga ta’sir qiluvchi omillar aniqlanadi. Riskga asoslangan yondashuv yordamida auditorlar resurslarni eng xavfli sohalarga yo‘naltiradi, bu esa xatoliklar va moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olishga yordam beradi.
2. Kompleks audit rejasini ishlab chiqish - ichki audit jarayonini samarali tashkil qilish uchun uzoq muddatli va kompleks audit rejasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunday reja tashkilotning barcha faoliyat sohalarini qamrab oladi va audit rejasida har bir soha uchun alohida maqsadlar, metodologiya va vaqt oralig‘i belgilanadi.
3. Operatsion samaradorlikni oshirish - ichki audit nafaqat moliyaviy jarayonlarni nazorat qiladi, balki operatsion jarayonlarni ham yaxshilashga qaratilgan. Bu usul orqali tashkilotning operatsion faoliyati tekshiriladi va samaradorlikni oshirish yo‘llari aniqlanadi. Jarayonlarning soddalashtirilishi va resurslardan oqilona foydalanish orqali tashkilotning umumiy faoliyati yaxshilanadi.
4. Xatarlarni doimiy baholash - ichki auditning yana bir samarali usuli xatarlarni muntazam ravishda baholab borishdir. Xatarlarni baholash orqali tashkilotga ta’sir qiluvchi omillar aniqlanadi va ularga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Tashkilot xavflarni kamaytirish orqali moliyaviy va operatsion barqarorlikka erishishi mumkin.
5. Ichki audit uchun texnologiyalardan foydalanish - zamonaviy ichki audit tizimlari texnologiyalarga asoslanadi. Texnologik vositalar va avtomatlashtirilgan audit dasturlari jarayonlarning samaradorligini oshiradi, xatolarni kamaytiradi va natijalarni tezkorlik bilan olish imkonini beradi.
6. Foydali fikr-mulohaza va tavsiyalar tizimini yo‘lga qo‘yish - ichki audit jarayoni natijasida tuzilgan hisobotlar va tavsiyalar auditorlar tomonidan rahbariyatga taqdim etiladi. Ushbu tavsiyalar asosida tashkilot faoliyatidagi kamchiliklar bartaraf etiladi va yangi strategiyalar ishlab chiqiladi. Bu usul rahbariyatni qaror qabul qilishda faol jalb qilish va audit jarayonini yaxshilash imkonini beradi.
7. Tavsiya va kuzatuv tizimi - samarali ichki audit tizimi tashkilotdagi jarayonlarni tekshirish bilan cheklanmaydi, balki aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar

beriladi va ularning amalga oshirilishini kuzatadi. Auditorlar tavsiyalarning qanchalik bajarilishini nazorat qilish uchun kuzatuv tizimini yo‘lga qo‘yadi.



1-rasm. Ichki auditni joriy etishning asosiy usullari [2]



2-rasm. Moliyaviy nazoratni tashkil etuvchi tashkilotlar tomonidan budjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasiga alohida e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan yo‘nalishlar [7]

Davlat tashkilotlarida moliyaviy nazoratni shakllantirish bugungi kunda har bir mamlakatda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda samarali tizimni yaratish davlat tashkilotlarida moliyaviy mexanizmlar ishlashini ta’minlab beradi. Davlat tashkilotlarida moliyaviy nazoratni shakllantirish budjet mablag‘laridan samarali foydalanishga imkoniyat yaratadi. Shu sababli so‘nggi yillarda mamlakatimizda ham davlat tashkilotlarida moliyaviy nazoratni yaxshilash bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son Qarorida bir qator jihatlarga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish, budjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasini kuchaytirish va masofaviy moliyaviy nazoratni kengaytirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida moliyaviy nazoratni tashkil etuvchi tashkilotlar birinchi navbatda quyidagi yo‘nalishlarda budjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasiga alohida e’tibor qaratishi belgilangan (2-rasm).

Moliyaviy nazoratni tashkil etuvchi tashkilotlar 2022-yildan boshlab nazorat ishlarining yillik dasturlarini quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga muvofiqlashtirishi belgilangan (3-rasm).



3-rasm. Moliyaviy nazoratni tashkil etuvchi tashkilotlar tomonidan nazorat ishlarining yillik dasturlarini muvofiqlashtirishi lozim bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar [7]

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda “Elektron nazoratchi-taftishchi” dasturiy majmuasining yaratishi lozimligi belgilangan. Unga ko‘ra birinchi bosqichda, ya'ni 2022-yil 1-sentabrga qadar vazirlik va idoralar bilan real vaqt rejimida axborot almashinuvi orqali budjet qonunchiligini buzish xavfini tahlil qilish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi vazirligining moliyaviy nazorat ma’lumotlari bazasini ishga tushirish ta’kidlangan. Ikkinchi bosqichda, 2023-yil 1-yanvarga qadar davlat moliyaviy nazorati obyektining muayyan davr uchun ayrim masalalar bo‘yicha faoliyatini nazorat qilish (mavzuli nazorat) modulini yaratish belgilangan. Bunda dasturiy majmuani ishlab chiqish va joriy etish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti hisobidan moliyalashtirilishi qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hamda vazirliklar va idoralarning ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlash tartibi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- malaka sertifikatini olish uchun talabgorlarga qo‘yiladigan malaka talablari;
- malaka imtihonini tashkil etish, o‘tkazish hamda natijasi yuzasidan apellatsiya berish va uni ko‘rib chiqish tartibi;
- malaka sertifikatini berish va qayta rasmiylashtirish, shuningdek, malaka sertifikatlari reyestrini yuritish;
- malaka oshirish kursini tashkil etish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta’kidlash mumkinki, davlat tashkilotlarida moliyaviy nazoratni tashkil etish katta ahamiyatga ega. Mazkur tizimning samaradorligi budjet mablag‘laridan oqilona foydalanishni ta’minlaydi.

Xulosa

O‘zbekistonda ichki auditning moliyaviy nazorat tizimini tashkil etishdagi rolini tadqiq qilish asosida quyidagilarni qayd etishimiz lozim:

1. O‘zbekistonda ichki audit moliyaviy nazorat tizimining ajralmas elementi sifatida budjet mablag‘lari va davlat aktivlaridan oqilona foydalanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Biroq ayrim tashkilotlarda ichki audit faoliyatining mustaqilligi, risklarni baholash mexanizmlari va audit natijalaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish darajasi yetarli emas. Shu sababli ichki audit xizmatlarining institutsional mustaqilligini kuchaytirish, ularning bevosita yuqori boshqaruv organlariga hisobot berish tizimini joriy etish hamda xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadga muvofiqdir;

2. Ichki auditning samaradorligi moliyaviy nazoratning natijadorligiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi, chunki u moliyaviy intizomni mustahkamlash, qonunbuzarliklarni erta aniqlash va moliyaviy xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Amaliyotda esa audit ko‘pincha faqat tekshiruv funksiyasini bajarib, preventiv nazorat mexanizmlariga yetarli e’tibor qaratilmaydi. Shu munosabat bilan riskga asoslangan ichki audit metodologiyasini barcha budjet tashkilotlarida keng joriy etish, audit rejalashtirish jarayonida xavf darajasi yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarga ustuvor ahamiyat berish hamda audit tavsiyalarining ijrosi ustidan doimiy monitoring tizimini yaratish tavsiya etiladi;

3. Raqamli transformatsiya sharoitida ichki auditning moliyaviy nazoratdagi samaradorligi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Elektron moliyaviy ma’lumotlar bazalari, avtomatlashtirilgan nazorat vositalari va ma'lumotlar tahlili (Data Analytics) usullaridan foydalanish audit sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli ichki audit faoliyatiga sun'iy intellekt, Big Data va uzluksiz audit (Continuous Auditing) texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish, auditorlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish hamda yagona elektron audit platformasini yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Малеин Н.С. Кредитно-расчетные правоотношения и финансовый контроль. – М.: Наука, 1964. С.103.
2. Козырин А.Н. Финансовый контроль. // Финансовое право: учебник. / Под ред. проф. О.Н. Горбуновой. – М.: Юристъ, 1996. С.48.

3. Конюхова Т.В. Правовые акты об органах, осуществляющих финансовый контроль. // Законодательство и экономика. 1997. №19/20. С.25.
4. Грачева Е.Ю. Финансовое право. 1999. С.19.
5. Omonova Z. (2023) INTERNAL AUDIT SYSTEM IN BUDGET ORGANIZATIONS: ENSURING ACCOUNTABILITY AND EFFICIENCY. https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/6814 (Accessed: 9 October 2024).
6. Mehmonov S.U. (2022) "FORMATION OF INTERNAL AUDIT REPORTS AND RECOMMENDATIONS IN BUDGET ORGANIZATIONS", pp. 469–472.
7. "O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son Qarori. https://lex.uz/docs/-5858712
8. Usmonov Sh.Sh. (2022). BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYA XO'JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISHNING AMALDAGI HOLATI, pp. 16–21